



UDK:415.412.51=20(021)

*Nargiza SUYAROVA,*

*Dotsent, PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston*

*E-mail:suyarovanargiza345@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0000-5564-7133>*

*Filologiya fanlari doktori, professor T. Jumayev taqrizi asosida*

## LINGVOMETAFORIK TERMINLARNING LISONIY TABIATI

Annotatsiya

Maqolada metaforalar va ularning lingvometaforik terminlarning lisoniy tabiati haqidagi aniq tushunchalar taqdim etilgan. Unda O‘zbek tilining 5 tomli izohli lug‘atida tilshunoslik terminlaridan ega leksemasining leksikografik talqini ancha batafsilligi bilan ajralib turishi va lug‘atda leksemaning 7 ta ma‘nosi farqlangan va izohlangan. Shuningdek, metaforalar lug‘aviy ma‘nosi “qanday ishlatilgani va ularning kontekstidagi o‘rni to‘g‘risida tahlil keltirilgan, hamda ularning to‘g‘ri va samarali ishlatilishiga ahamiyat berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Denotativ, konnotativ, kognitiv funksiya, kommunikativ funksiya, hosila ma‘no, lug‘aviy ma‘no.

## THE LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF LINGUOMETAPHORICAL TERMS

Annotation

The article presents clear insights into metaphors and the linguistic nature of linguometaphorical terms. It highlights that the lexicographic interpretation of the linguistic term ega (“subject”) in the five-volume Explanatory Dictionary of the Uzbek Language is distinguished by its detailed description, where seven meanings of the lexeme are identified and explained. The study also analyzes the dictionary meanings of metaphors, the ways they are used, and their role in context. Particular attention is paid to their accurate and effective use in communication.

**Key words:** Denotative meaning, connotative meaning, cognitive function, communicative function, derived meaning, lexical meaning.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ЛИНГВOMETAFOPИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье представлены чёткие представления о метафорах и языковой природе лингвometafopических терминов. Отмечается, что лексикографическая интерпретация лингвистического термина эга («подлежащее») в пятитомном Толковом словаре узбекского языка отличается высокой степенью подробности: в словаре выделены и объяснены семь значений данной лексемы. Кроме того, в работе анализируются словарные значения метафор, особенности их употребления и их роль в контексте. Особое внимание уделяется правильному и эффективному использованию метафор в речи.

**Ключевые слова:** Денотативное значение, коннотативное значение, когнитивная функция, коммуникативная функция, производное значение, лексическое значение.

**Kirish.** Metaforik ma‘no, asosan, leksema bosh sememasi tarkibidagi denotativ (atash) va konnotativ (ifoda) semalari nisbatining o‘zgarishi asosida yuzaga chiqadi. Hosila ma‘no esa semema maqomida (lisoniy) bo‘lishi yoki semema maqomida bo‘lmasligi (nutqiy bo‘lishi) ham mumkin.

Leksema sememalarining tarkibidagi atash, ifoda va vazifa semalari o‘zaro dialektik bog‘lanishda va teskari mutanosiblikda (teskari proporsional) bo‘ladi. Aniqrog‘i, har bir sememada ushbu uch xil sema mavjuddir. Ammo ba‘zi semalarning kuchayishi, aniqlashishi, bo‘rttirilishi boshqa semalarning zaiflashishiga, kuchsizlanishiga olib keladi. Jumladan, mustaqil leksema sememalarida atash semalari kuchayganda, ifoda va vazifa semalari zaiflashadi. Aksincha, undov va taqlidiy leksema sememalarida atash semalari zaiflashganda, ifoda semalari kuchayadi. Yordamchi leksemalarda esa ifoda va atash semalari zaiflashganda, vazifa semalari kuchayadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Agar semik kuchsizlanish va kuchayish ijtimoiylashsa, hosila ma‘no semema darajasiga chiqadi, aksincha o‘zgarish muvaqqat holat sifatida qoladimgan bo‘lsa, bu hosila ma‘no leksema darajasiga ko‘tarilmaganligi bois lug‘atlardan o‘rin olmaydi.

O‘zbek leksikologiyasiga doir keng qirrali izlanishlar muallifi, atoqli olim M.M.Mirtojiev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi. M.M.Mirtojievning ta‘rificha, oddiy metaforani deyarli qisqargan o‘xshatish deb bo‘lmaydi takidlaydi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o‘xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentga o‘xshatilishiga; sintesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o‘xshatilishiga asoslanadi. Tilshunos olim N.M.Mahmudov ham metaforalar orasida sinestetik metaforalarni ajratadi va “sinestetik metaforalar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro zid, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lishi ham mumkin deb takidladilar.

Lingvistik termini tavsiflovchi yoki atovchi leksemalarning qariyb barchasi ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanadi va ularning aksariyati lisoniylashgan – ijtimoiylashgan, ya‘ni semema darajasiga ko‘tarilgandir. Chunonchi:

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbek tilining 5 tomli izohli lug‘atida tilshunoslik terminlaridan ega leksemasining leksikografik talqini ancha batafsilligi bilan ajralib turadi. Lug‘atda leksemaning 7 ta ma‘nosi farqlangan va izohlangan.

EGA 1 Uy-joy, mol-mulk va sh.k. lar qarashli bo'lgan shaxs; xo'jayin, sohib. Uy egasi. Bog'ning egasi. Chiqasi kelsa, egasi sababchi bo'ladi. Maqol. Eshakka muguz bitsa, egasini suzadi. Maqol. Itning fe'li egasiga ma'lum. Maqol. Daftarni egasiga qaytarib yuborish kerak edi-da. "Yoshlik". Bolaning topilgani uy egalarninggina emas, qo'shnilar, hammahallalarning ham quvonchiga aylandi. R. Fayziy, Sen yetim emassan. Mana shu mulkning egasi O'tar boboni bilarsiz? Shu zotning farzandiman. S. Siyoyev, Yorug'lik.

2 Yurt, el kabi so'zlar bilan qo'llanib, shu so'zlar anglatgan joyning boshqaruvchisi, boshlig'i ma'nosini bildiradi. Otajon, sendirsan yurtning egasi.. "Ravshan". Shunda Chambilning ovini ovlab, Chambilning egasi bo'lib yurganda, Chambshning deparasida Turkman degan bir yurt bor edi. "Shirin bilan Shakar". Metafora

3 Shaxs yoki narsada o'zi birikib kelgan so'z anglatgan narsaning bor, mavjud ekanini bildiradi; bor, mavjud. Tilsiz bo'lib keldim dunyoga, Ammo tilga egaman endi. "Guldasta". Barcha qulayliklarga ega bo'lgan binolar qad rostladi. Gazetadan. Polisemiya

4 Mavhum tushunchalarni bildiruvchi ayrim so'zlar bilan qo'llanib, shaxs yoki narsaning shu so'z anglatgan belgi, xususiyat kabiga molikligini bildiradi; molik. Katta ahamiyatga ega. Yuksak fazilatlariga ega. mm .yuksak texnologik sifatlariga ega bo'lgan chigitni ekish ancha ko'paytirildi. Gazetadan. Otasining saltanat katta hurmatga ega ekani Badianing qalbida ham fidoyilik tuyg'ularini solgan edi. Mirmuhsin, Me'mor. Polisemiya

5 Narsani yuzaga keltirish, tayyorlash va sh.k. jihatdan qarashlilikini bildiradi. -Yo'q, - dedi O'zbek oyim, - osh egasi bilan shirin.. Ha, aytgandek, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi? A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

6 c.t. (faqat 1-sh. egalik affiksi bilan) Tangri, xudo. - Buni yaratgan egamning o'zi biladi, - dedi oqsoqol. P. Tursun, O'qituvchi. Sizni egam so'zga pichib qo'yan ekan-da. Oybek, Tanlangan asarlar. Hamroh yoki yondosh ma'no.

7 tlsh. Ikki tarkibli gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh bo'lak. Metafora

Ma'nolardan 2- (2 Yurt, el kabi so'zlar bilan qo'llanib, shu so'zlar anglatgan joyning boshqaruvchisi, boshlig'i ma'nosini bildiradi. Otajon, sendirsan yurtning egasi.. "Ravshan". Shunda Chambilning ovini ovlab, Chambilning egasi bo'lib yurganda, Chambshning deparasida Turkman degan bir yurt bor edi. "Shirin bilan Shakar") bo'lib, ega subyektiv o'xshashlik asosida yuzaga kelgan metafora sanaladi.

Bu borada metaforani ta'riflash ikki xil bo'lishini hisobga olish zarur:

Subyektiv baho.

Obyektiv baho.

Subyektiv baho ta'rif nomidan ko'rinib turibdiki, subyektivga, shaxsga bog'lanadi. Baholanayotgan narsa baholovchi nazardan ko'riladi. Ya'ni bu o'rinda subyektiv (baholovchi)ning dunyoqarashi, obyektiv (baholanuvchi)ga shaxsiy munosabati, baholashdan kutilgan niyati baholash jarayonini boshqaradi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu xil baholash natijasini ratsional deyish qiyin. Ta'riflashda subyektivlikka asoslanish ikki jihatdan talabga javob bermaydi:

1. Subyektiv bahoda narsaning asl xususiyatlaridan ko'ra unga subyektiv tomonidan bog'langan xususiyatlar ustunlik qiladi.

2. Natijada bitta obyektivga bir necha subyektiv tomonidan bir necha xil baho beriladi. Shuning uchun baholashda baholovchi (subyektiv) emas, baholanuvchi (obyektiv) xususiyatlariga suyanish zarur. Baholashda bu yo'ldan borish ob'ektivlik deb ataladi. Obyektivlik dialektika - qiyosotning asosiy tamoyillaridandir.

2-ta'rifdagi "yurtning egasi", "Chambilning egasi" birikmalaridagi ega subyektiv tomonidan bog'langan xususiyatlar asosida metaforik ma'noni vujudga keltirgan.

3- 4- (3 Shaxs yoki narsada o'zi birikib kelgan so'z anglatgan narsaning bor, mavjud ekanini bildiradi; bor, mavjud. Tilsiz bo'lib keldim dunyoga, Ammo tilga egaman endi. "Guldasta". Barcha qulayliklarga ega bo'lgan binolar qad rostladi. Gazetadan.

4 Mavhum tushunchalarni bildiruvchi ayrim so'zlar bilan qo'llanib, shaxs yoki narsaning shu so'z anglatgan belgi, xususiyat kabiga molikligini bildiradi; molik. Katta ahamiyatga ega. Yuksak fazilatlariga ega. mm .yuksak texnologik sifatlariga ega bo'lgan chigitni ekish ancha ko'paytirildi. Gazetadan. Otasining saltanat katta hurmatga ega ekani Badianing qalbida ham fidoyilik tuyg'ularini solgan edi. Mirmuhsin, Me'mor ma'nolar esa polisemantiklik maqomida turadi. Ma'lumki, "... bu bir so'zning bir nechta bir-biriga bog'liq yoki o'zaro aloqador ma'nolarga ega bo'lishidir, bu holat tilning rivojlanishi natijasida yuzaga keladi va ma'noning o'xshashlik yoki yaqinlik asosida bir so'zdan boshqasiga ko'chishi"dir. O'TILda keltirilgan ushbu paradigmani "tilga ega", "sifatlariga ega", "hurmatga ega" va h. k. tarzida istagancha davom ettirish mumkin.

5- va 6- (5 Narsani yuzaga keltirish, tayyorlash va sh.k. jihatdan qarashlilikini bildiradi. -Yo'q, - dedi O'zbek oyim, - osh egasi bilan shirin.. Ha, aytgandek, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi? A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

6 s.t. (faqat 1-sh. egalik affiksi bilan) Tangri, xudo. - Buni yaratgan egamning o'zi biladi, - dedi oqsoqol. P. Tursun, O'qituvchi. Sizni egam so'zga pichib qo'yan ekan-da. Oybek, Tanlangan asarlar ma'nolar esa ega so'zining hamroh yoki yondosh ma'nolari bo'lib sanaladi.

1- EGA 1 Uy-joy, mol-mulk va sh.k. lar qarashli bo'lgan shaxs; xo'jayin, sohib. Uy egasi. Bog'ning egasi. Chiqasi kelsa, egasi sababchi bo'ladi. Maqol. Eshakka muguz bitsa, egasini suzadi. Maqol. Itning fe'li egasiga ma'lum. Maqol. Daftarni egasiga qaytarib yuborish kerak edi-da. "Yoshlik". Bolaning topilgani uy egalarninggina emas, qo'shnilar, hammahallalarning ham quvonchiga aylandi. R. Fayziy, Sen yetim emassan. Mana shu mulkning egasi O'tar boboni bilarsiz? Shu zotning farzandiman. S. Siyoyev, Yorug'lik. va 7 - (7 tlsh. Ikki tarkibli gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh bo'lak.) ma'nolarning qiyosi o'zbek tili sintaksisidagi gapning bosh bo'lagi bo'lmish eganing lisoniy ko'chim - metafora natijasida vujudga kelganligini asoslaydi.

**Tahlil va natijalar.** O'TILda keltirilgan eganing lug'aviy ma'nosi "Uy-joy, mol-mulk va sh.k. lar qarashli bo'lgan shaxs; xo'jayin, sohib" ekanligi ayni haqiqat, grammatikadagi egada gap hukmiga "ega, xo'jayin" lik ma'nosi implitsit tarzda mujassamlashgan. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi bosh bo'lak hisoblanmish ega termini metafora usuli bilan yuzaga kelgan.

Ana endi tepada aytilgan "EGA" leksemasining ingliz tili izohli lug'atlarida keltirilgan leksikografik talqinlarini ko'rib chiqamiz. Ingliz tilida eng mashhur va yuqori ko'lamga ega izohli lug'atlarimiz: Longman Dictionary of Contemporary English, Oxford English Dictionary, Macmillan English Dictionary, Collins English Dictionary kabilardan foydalanamiz.

Ega - ingliz tilida "owner"- sanaladigan ot, biror bir narsaning egasi (Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus), yoki "biror narsaning egasi bo'lgan shaxs; qonuniy egasi" (Collins English Dictionary). Avtomobil egalari benzin narxining 10 foizga oshishiga duch kelishmoqda. (Longman Dictionary of Contemporary English). Aksariyat biznes egalari moliyaviy maslahatchining yordamini bebaho topadilar. Uning

umid qilishicha, bu ish it egalariга uy hayvonlari stressga uchraganini aniqlashga va ularning hayotini yaxshilash yo'llarini topishga yordam beradi. Times, Sunday Times (2016).

Ega – subject, ya'ni o'zbek tilidagi gapning bosh bo'lagi EGA ma'nosini beradi. Grammatikada gapning predmeti fe'l bilan ifodalangan harakatni bajaruvchi shaxs yoki narsaga ishora qiluvchi ot turkumidir. Masalan, "Mening mushugim qushlarni ovlayapti" da "mening mushugim" gapning egasi ya'ni subject. What he said surprised everyone. "what he said"-subject clause, ya'ni gapning egasi. That she was beautiful was obvious to all. "That she was beautiful" – gapda ega vazifasida kelmoqda. Bu misol Jane Austenning "Pride and Prejudice" asaridan olingan.

Ega-master. Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus lug'atiga ko'ra master – hayvonga egalik qiluvchi, unga g'amxo'rlik qiluvchi va nazorat qiluvchi shaxs, qo'lida xizmatkor ishlaydigan yoki qul egasi bo'lgan shaxs, muayyan vaziyatni nazorat qiladigan shaxs kabi ma'nolarni anglatadi. "The dog remained loyal to its master until the end of his life" – It umrining oxirigacha xo'jayiniga sodiq qoldi.

Ega- holder. Cambridge online lug'atiga ko'ra holder so'zi biror narsaga rasman egalik qiluvchi kishi ma'nosini

beradi. An account/licence/passport holder-hisob/litsenziya/pasport egasi kabi so'zlar bilan ishlatiladi. Holders of shares in the company receive various benefits – Kompaniya aksiyalari egalari turli imtiyozlarga ega. The passport holder is responsible for the safety of the document. Hujjatning xavfsizligi uchun pasport egasi javobgardir.

Ega – host ma'nosini ham beradi. Bu so'z biror bir tadbir egasi yoki mehmon kutayotgan shaxsdir. Mezbon oila, mezbon davlat kabi birkmalar holdida ham ishlatiladi. Longman contemporary English dictionarydan olingan misol: U yaxshi kiyingan, yuzaki odobli, lekin barbekyudagi noz-karashma uylangan uy egasini eslatadi.

Xulosa O'zbek tilining 5 tomli izohli lug'atida tilshunoslik terminlaridan ega leksemasining leksikografik talqini ancha batafsilligi bilan ajralib turadi. Lug'atda leksemaning 7 ta ma'nosi farqlangan va izohlangan. O'TILda keltirilgan eganing lug'aviy ma'nosi "Uy-joy, mol-mulk va sh.k. lar qarashli bo'lgan shaxs; xo'jayin, sohib" ekanligi ayni haqiqat, grammatikadagi egada gap hukmiga "ega, xo'jayin"lik ma'nosi implitsit tarzda mujassamlashgan. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi bosh bo'lak hisoblanmish ega termini metafora usuli bilan yuzaga kelgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Dickens Ch. Great Expectations. – London: Chapman & Hall, 1861. – P. 45.
2. London J. The Call of the Wild. – New York: Macmillan, 1903. – P. 58.
3. Longman Dictionary of Contemporary English. – 6th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2014. – P. 812.
4. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Mumtoz so'z, 2010.
5. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 64.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
7. Cambridge Dictionary. Owner [Elektron resurs]. – Murojaat rejimi: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/owner> (murojaat sanasi: 12.06.2026).
8. Collins Dictionary. Subject [Elektron resurs]. – Murojaat rejimi: <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/subject> (murojaat sanasi: 12.06.2026).